

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING “ZAHARLI HAYOT YOXUD ISHQ QURBONLARI” ASARI BADIYYATI

Qalandarova Dilafrō'z Abdujamilovna

Ilmiy maslahatchi

Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek adabiyoti va uni o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti,

f.f.f.d. (PhD)

e-mail: d.kalandarova2022@gmail.com

tel: +99911339677

Tilovqobilova Sevinch Davronboy qizi

Nizomiy nomidagi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

e-mail: pulatovarukia02@gmail.com

tel: +998933702423

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118356>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida qisqacha ma'lumot, uning dramatik asarlari va ularning mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. H.H.Niyoziyning “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” asarining yaratilishi va uning badiyyati borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yozuvchi, drama, dramatik asar, fojia, janr, qahramon.

*O'ylama, o'lguncha har kim bu razolatda ketar,
Shohlar bir kun gado, bir kun gado shahzoddir.*

H.H.Niyoziy.

Shoir va dramaturg, tarbiyachi, murabbiy, jamoat arbobi bo'lgan Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilning 6-mart kuni Qo'qonda Hakimcha ismi bilan mashhur bo'lgan tabib oilasida tug'ilgan. Otasi Ibn Yamin Xolboy o'g'li o'zbekcha va forschadan savodli bo'lib, “Buxoroga borib xalq do'qtiri” bo'lib qaytgan. Shu sababli Hamza o'z taxallusiga tabibning o'g'li ma'nosidagi “Hakimzoda” nomini qo'shgan. Yozuvchining onasi Jasonbibbi ham tabobatdan anchagina xabardor ayol edi. O'z tarjimai holida Hamza 10 yoshida “o'zbekcha va forschaga tom savodli” bo'lganligini yodga oladi [4. 339-bet.].

U 1896-1908-yillarda eski maktab va madrasalarda tahsil oladi, arab, fors, turk tillarini o'rganadi. 1908-yilda Namanganda o'qiydi. O'sha paytda u mahalliy maorif marifatchisi Abdulla To'qmullin bilan uchrashib, unga “she'riy yozishmalarini” ko'rsatadi. Bu haqda Hamza tarjimai holida shunday yozgan: “*Ul yuz sahifadan ortiqroq eski usuldagi she'riy yozishmalarimni ko'rib, tarbiyalashga kirishdi.*”

Hamza Hakimzoda 1914-1917-yillarda Marg'ilon va Qo'qonda yo'qsil bolalarni o'qitish uchun maktablar ochadi, lekin turkistonliklarni savodli bo'lishini istamagan chor amaldorlari bunday maktablarni zo'rlik bilan yopib tashlab, undagi ashyolarni musodara qiladilar. Bu haqda Hamza 1926-yilning 25-avgustida yozgan tarjimai holida shunday deydi: “*1914-yillarning oxirlarida Marg'ilonda maktab ochdim, 8 oyga bormay Andreyev ismindagi Skoblev maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi. Undan yana Ho'qand kelib, bir qancha o'zimga yaqin kishilar to'plab, ularning yordami bilan yo'qsil bolalar uchun pulsiz o'qitish maktabi ochdim. 20-*

30 keyin 15-16 kishi bir oygina yordam berdilar, o'zim 4 oycha davom ettirgandan keyin, uyaz nachalnigi tomonidan tintuv bo'lib, yopildi. Lekin hech bir qanday qog'ozlarim qo'lga tushmagani uchun qamalmay qutuldim" [5.13-14-betlar].

Hamza 1914-1915-yillarda "Yangi saodat", "Uchrashuv kabi "milliy romanlar" yaratdi. "Yangi saodat" 1914-yilda yozilgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi ilm – ma'rifat, baxt-saodat kaliti ekanligini asoslashdir. "Yangi saodat" asari haqida "Al isloh" jurnali, so'z yuritib, "xalqni o'quv va yozuv tarafiga targ'ib qilmoq uchun hozirgacha Turkiston shevasinda buningdek ta'sirli roman nashr o'linmamish".- deb yozgan edi [4. 342-bet].

Hamzaning "Paranji sirlari", "Maysaraning ishi" dramalari o'zbek dramaturgiyasini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqqan asarlardir.

Hamza dastlab «Zahari hayot yoxud ishq qurbonlari», «Ilm hidoyati», «Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi» (1915), «Loshmon fojialari» (1916) kabi pyesalar yozdi. Bu sahna asarlarida dramaturg qoloq aqidalar, nodonlik tufayli og'ir turmush girdobiga tushib qolgan personajlar hayotini ta'sirli aks ettirishga urindi. Johil, ma'rifatsiz kishilarning zo'ravon va insofsizligini fosh etdi. Oddiy xalqning og'ir ahvolini aks ettirib, unga hamdardlik bildirdi. Eski tuzumni, xurofiy urf-odatlarini fosh etish, xalqparvarlik va ma'rifatni targ'ib etish Hamza asarlarining asosiy g'oyaviy mazmunini tashkil etadi [2. 130-bet].

«Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» dramasida ijtimoiy tengsizlik, xotin-qizlarning ayanchli ahvoli ochiq ko'rsatilgan. Dramada johil ruhoniylarning vahshiyliigi, vijdotsizligi, insofsizligi, ayollar huquqining oyoq osti qilinganligi ochib tashlanadi. Bu asar 1915-yilda yozilgan bo'lib, u 1916-yilda nashr etilgan. Hamza bu janrni "Turkiston maishatidan olingan qiz-kuyov fojiasi" deb atagan. Asarda adib markaziy qahramon qilib yoshlarni tanlagan. Muallif bu asarida Mahmudxon va Maryamxonni "ish qurbonlari" sifatida tasvirlaydi. "Zahrli hayot" fojiasida ma'rifatli insonning "jaholat va g'aflat zindoni"dagi fojiali taqdiri ham ko'rsatib berilgan. Asarda Maryamxonning muttasib otasi yolg'iz qizini olti xotinlik eshonga nazr qiladi. Pyesa 4 pardadan iborat bo'lib, uning 1- va 4-pardalarida asosan Mahmudxon, 2-va 3-pardalarida esa asosan Maryamxon harakat qiladi.

Asarning asosiy qahramonlari quyidagilardir: **Maryamxon** (Eng faol qahramon, Mahmudxonning sevgilisi. U o'z sevgilisi Maxmudxonga "Ardoqli millatim, g'unchayi muhabbatim, suyuqli afandim...orzu-havas o'lsa-o'lsun, milliyat, insoniyat o'lmasun..." deb xat yozgan), **Mahmudxon** (xushmo'ylab, soqolsiz, sochlik, ko'zida oynak bor, butun ovropacha kiyingan, Mirzo Hamdamboyning 15 yoshli yolg'iz o'g'li". Sevgilisini o'limidan so'ng ishq yo'lida o'zini-o'zi o'ldirgan), **Mirzo Hamdamboy** ("Olti yildan baqqa qancha pullar sarf qilib" o'g'lini unga, nima maqsadda o'qitganini o'zi ham deyarli tushunmaydigan shaxs), **Abduqodirboy** (Hamdamboyning oshnasi), **Mavsum**, **Eshon**, **Sora** (Maryamxonning onasi), **Zaynab** (Mahmudxon va Maryam orasida xat tashuvchi 60 yoshdagi kampir) va boshqalar [4. 344-bet].

Dramada jaholat, qoloqlik, mutaassiblik ilm-ma'rifatsizlik, taraqqiy etmaganlik kabi holatlar Mahmudxon va Maryamxonni fojeaga olib keladi.

Asarning ikki qahramoni Maryam va Mahmud zamonasining hal qilivchi kuchlari mutaassib kuchlarga qarshi kurashadilar. Tomonlar o'rtasidagi kurash eng yuqori nuqtaga ko'tariladi. Ularning istiqbol haqidagi yuksak orzulari chilparchin bo'ladi. Natijada ilojisiz qolgan yoshlar mavjud tuzumga, feodal tartiblarga, jaholatga, mutaassiblarga qarshi isyon tariqasida o'z jonlariga qasq qiladilar. Asardagi Mahmudxon manologlarining insonga ta'siri shu darajada

kuchliki, tinglovchini qalban larzaga soladi. Mahmudxonning o'limi oldidagi monologi fojeaning asl mohiyatini yanada to'laroq ochishga xizmat qiladi. Buni asarning 4-pardasida Mahmudxon suyuklisi Maryamxonning qabri boshiga kelib, aytgan so'zlari misolida ko'rsak bo'ladi: *"Senga zulm qilguvchu vir menmi? Yo'q, mening joxil otam, sening joxil ota-onang mening joxila onam sabab bo'lgan, to'rt kishiya! Men har narsa deding qabul qildim. O'zingni ota-onalaring sabab bo'ldiki! Menda u qadar gunoh yuqku!.. Yo'q, Yo'q, jonim yo'q, afu qil, gunoh bir ota-onalarda ham emas. Haqiqatda bu ishlar jaholatdan, jaholatdan, g'aflatdan, ilmsizlikdan!..*

Bu qamday jaholat zamon, qanday vaxshat zamon!.. Insoniyatni, vijdonni, adolatni, mehr-shafqatni, jondan ortiq farzandni, aqchaga sotadigan zamon! Sotadigan!.. Men yashamam, sensiz dunyoda bir kun turmam, degan edim... Men sensiz yashamam, o'z suyukligim bo'lmagach dunyo harom..

Oh jaxolat!.. Dod, g'aflat! Faryod, zaharli hayot! [1].

Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziyning dramatik asarlari bu janrning taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatadi va rang-barang obrazlar, bilan uni boyitdi. Xususan, Niyoziy «Zahari hayot yoxud ishq qurbonlari» fojiasida ikki yosh sevishtanlar obrazi orqali o'sha davrdagi millatning qoloqligini va zulmni ochib bergan desak mubolag'a bo'lmaydi.

References:

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" 4 pardalik fojia. 1916.
2. Saydulla Mirzayev "XX asr o'zbek adabiyoti" Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2005.
3. Muhsin Qodirov. O'zbek teatri tarixi. Toshkent 2003. "Ijod dunyosi" nashriyot uyi.
4. Sharafjon Sariyev. Adabiyot. Metodik qo'llanma. Toshkent. 2019.
5. Q.Yo'ldoshev va boshq. Adabiyot. (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinflar uchun darslik-majmua). Toshkent. Sharq. 2013.
6. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 268-273.
7. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).
8. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.5 (2022): 105-110.
9. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Education of children through national mobile games in preschool educational institutions." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 486-490.
10. Алимова, Зулфия Каримовна, and Дилафруз Абдужамилевна Каландарова. "Воспитание детей в духе национальных традиций и ценностей в дошкольных образовательных учреждениях." ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ. 2020.
11. Алимова, З. К., and И. М. Расулова. "ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА." Интеллектуальное наследие

Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.

12. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.5 (2021): 500-503.

13. Dilafruz, Kalandarova. "Issues Of Uzbek Folklore And Its Research In Germany." Journal of Positive School Psychology 6.9 (2022): 4395-4398.

14. Reichl, Karl. Routledge Revivals: Turkic Oral Epic Poetry (1992): Traditions, Forms, Poetic Structure. Routledge, 2018.

15. Каландарова, Д. А., and З. Ф. Каршибоева. "ХАРАКТЕР ТВОРЦА В ПОЭЗИИ БАБУРА." Интеллектуальное наследие Захириддина Мухаммада Бабура и современность. Сборник статей и тезисов докладов Международной научно-практической конференции 28 февраля 2020 г.. Litres, 2022.

16. Kalandarova Dilafruz, Dilafruz. "Research of the Sherabad Epic School Abroad." International Journal on Integrated Education 5.10 (2022): 149-151.



INNOVATIVE
ACADEMY